

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi
Bosh direktori, tashkiliy qo‘mita raisi
A.YUNUSOVNING
Respublika “Kitob bayrami”ning
tantanali ochilish marosimidagi
TABRIK SO‘ZI

Aziz mehmonlar!

Respublika “Kitob bayrami”ning muhtaram ishtirokchilari!

Hurmatli kitobcevarlar!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘uniyevich Karimovning «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» nomli asarida o‘zbek adabiyotini rivojlantirish orqali xalq ma'naviyatini, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirish, yoshlarimizni milliy adabiyotga, Ona-Vatanga yuksak muhabbat ruhida tarbiyalash borasida belgilab bergan vazifalar ijrosini amalga oshirishga qaratilgan Respublika “Kitob bayrami”ga tashrif buyurganligingiz bilan Siz aziz - kitobsevarlarni chin dildan qutlashga ijozat bergaysizlar!

Mana shunday fayz va shukuhga to‘la kunlarda o‘tkazilayotgan Respublika “Kitob bayrami” tadbirlari nafaqat poytaxtimizda, balki bir vaqtning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida ham bo‘lib o‘tmoqda.

“Kitob bayrami” tadbirlari davomida Mamlakatimizda adabiyotga, qadriyatlarimizni ulug‘lashga hamda xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishga davlat darajasida berilayotgan e'tiborni Siz azizlarga yaqindan yetkazish kabi ezgu niyatlar bilan bayramning maxsus dasturi tayyorlandi.

Mazkur dasturga muvofiq uch kun davomida:

- noshirlarning yangi kitoblari taqdimotlari;

- kitob mualliflari, adib va shoirlar, kitob grafikasi bo'yicha rassomlar, muharrirlarining kitobsevarlar bilan bevosita ijodiy uchrashuv-muloqotlari, mushoiralar va suhbatlar;

- bolalarning kitobga bo'lgan mehirlarini oshirishda ota-onalarga maslahatlar;

- "Kitobxon oila", "Mening birinchi kitobim", "Odamiylik kitobga bo'lgan ehtiromdan boshlanadi" kabi mavzularga oid sovrinli intellektual o'yin va viktorinalar o'tkaziladi.

Bayram tadbirlaridan "Kitobsevarlarni qutlaymiz!" - Badiiy dastur ham o'rin olgan bo'lib, unda Madaniyat va istirohat bog'ining turli hududlarida tashkil etilgan maxsus maydonchalarida bayramga tashrif buyurganlar uchun:

- Madaniyat va sport ishlari vazirligi huzuridagi "O'zbeknavo" estrada birlashmasi, "O'zbekteatr" ijodiy birlashmasi tomonidan jalb etilgan san'atkorlar, turli tanlovlar g'oliblari bo'lgan yosh iqtidor sohiblari mumtoz navolar, kuy va qo'shiqlardan tuzilgan konsert dasturi;

- Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari va yosh ijodkorlarning ijodiy uchrashuvlari;

- Respublika yosh tomoshabinlar teatri, Respublika Davlat qo'g'irchoq teatrining spektakllaridan sahna ko'rinishlari;

- O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari hamda Respublika Baynalmilal markazi qoshidagi Milliy madaniy markazlar havaskor san'atkorlarining badiiy chiqishlari rejalashtirilgan.

Hammamizga yaxshi ma'lumki, Respublikamiz Prezidenti, muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov yaqinda 9 may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Ommaviy axborot vositalari xodimlariga bergan intervyusida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning amaldagi natijasi xalqaro maydonda yuksak e'tirof etilayotganligi borasida bir yorqin dalilni keltirib o'tdilar.

Ya'ni "Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida o'tkazilgan "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari" degan mavzuidagi tadqiqotga ko'ra, mazkur reytingda 160ga

yaqin davlatlar orasida Respublikamiz 44-o‘rinni, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari o‘rtasida esa birinchi o‘rinni egallagan.

Bu avvalambor mustaqillik davrida iqtisodiyotimiz barqaror sur‘atlar bilan rivojlanayotgani, odamlarimizning hayot darajasi va sifati oshib borayotgani va bu yutuqlarni dunyo hamjamiyati yana bir bor tan olayotganini ko‘rsatadi,” - deb ta’kidladi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, biz bugun go‘zal, betakror zaminda yashayapmiz. Hozirgi hayotimizni kechagi kunimiz bilan solishtiradigan, qiyoslaydigan bo‘lsak, o‘ylaymanki, oramizda Vatanimizning bugungi beqiyos taraqqiyoti darajasi bilan faxrlanmaydigan, buni qadrlamaydigan odamning o‘zi yo‘q bo‘lsa kerak.

Davlatimiz rahbari, eng muhimi, yoshlarimizga ravon yo‘llarni ochib berishga e’tiborimizni yanada kuchaytirishimiz zarur, ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Zero, bugun o‘tkazilayotgan Respublika “Kitob bayrami” ham shak-shubhasiz Yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan ana shu ezgu maqsadlarning amalga oshishiga, unib-o‘sayotgan yoshlarimizning kitob mutolaasiga bo‘lgan mehrini, intellektual salohiyatini oshirishga, ularning yuksak ilm cho‘qqilarini egallashiga xizmat qiladi, deb o‘ylayman.

Respublika “Kitob bayrami”ga

xush kelibsiz,

aziz kitobsevarlar!